

уйғунлаштиришнинг конструктив усуллари, рационал воситалари яратилган; бешинчидан, техноген цивилизация глобаллашувининг муҳим субъекти

бўлган миллий давлатлар бошқарув тизими демократик характериға боғлиқ бўлади.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалиқ қоидаи бўлиши керак. -Т.: «Ўзбекистон», 2017. 52-б.
2. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. -Тошкент: "Янги аср авлоди", 2008. 201-б.
3. Аксёмов Б.В. Столкновение цивилизаций как конфликт между традиционностью и современностью. // «Идентичность и диалог культур в эпоху глобализации». Материалы Международной научно-практической конференции. -Бишкек: 2007. -С. 9-10.
4. Мирзиёев Ш.М. "Қамолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи. 2017 йил 30 июн.
5. Махкамова Д. Центральная Азия и страны Востока на пути сотрудничества и диалога культур. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2004. № 2. -С.20.
6. Адилходжаева С.М. Глобализация и вопрос устойчивого развития государства. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2008 № 3. -С. 55.
7. Кузнецов В. Геокультура. Основы геокультурной динамики безопасности в мире XXI век: культура сеть. -М.: Книга и Бизнес, 2003. -С. 416.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Тошкент: «Ўзбекистон», 2008. 111-112-б.
9. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. -Т.: 1999. 302-б.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада техноген цивилизация глобаллашув натижасида, унинг ижобий ва салбий оқибатлари, глобал маънавиятни шакллантириш муаммоси "ментал эҳтиёжлар" контекстида таҳлил қилиниб, универсал-умуминсоний қадриятларнинг ривожланиш қонуниятлари, объектив шарт-шароитлари, субъектив омилларини ривожлантиришнинг назарий-методологик аҳамияти, амалий йўналишлари кўрсатилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются объективные условия и субъективные факторы глобализации результатов, глобализации техногенной цивилизации и её позитивные и негативные последствия в контексте "ментальные потребности" и анализируются теоретико-методологические значения и практические направления и изменения этого процесса.

SUMMARY

The article deals with objective conditions and subjective factors of globalization of the results and technogen civilization and its positive and negative results in the context «mental requirements». The author analyses theoretical-methodological meanings and practical directions and changes of this process.

Huqiqataniw



Ушбу мақола Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси ҳузуридаги нодавлат, нотижорат таълим ва фан соҳасидаги бошқа институтларини қўллаб-қувватлаш жамоат фондининг «Ҳаракатлар стратегиясини ёшларимиз билиши керак!» лойиҳаси доирасида chop этилмоқда.

HARAKATLAR STRATEGIYASI ASOSIDA TA'LIM VA FAN SOHASIDAGI QONUNCHILIK HAMDA ILK ISLOHOTLAR

T.Kudaybergenova – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: harakatlar strategiyasi, taʼlim, fan, akademiya, maktabgacha taʼlim muassasalari, oʻquv reja.

Ключевые слова: стратегическое движение, преподавание, наука, академия, дошкольное образовательное учреждения, учебный план.

Key words: strategic action, teaching, science, academy, preschool establishment, curriculum.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Farmon bilan 2017–2021 yillarda Ўзбекистонni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya, shuningdek ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi. Milliy komissiyaga Prezidentning o'zi rahbarlik qiladi. 2017–2021 yillarda Ўзбекистон Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mohiyatiga ko'ra, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi **tizimli islohotlarning "yo'l xaritasi"**ga aylandi.

Harakatlar strategiyasi ijrosi doirasida shu yilning o'zida 20 dan ortiq qonun va 700 dan ziyod qonunosti hujjatlari qabul qilindi [2]. 2017–2021 yillarda Ўзбекистонni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida o'rin olgan to'rtinchi ustuvor yo'nalish **«Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari»** deb nomlanadi.

Ushbu yo'nalishda asosan 5 ta harakat ko'zda tutilgan.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish ushbu yo'nalishdagi to'rtinchi harakat.

SH.M.Mirziyoevning Ўзбекистон Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida ta'kidlanganidek, «Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylaydigan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat». Ushbu vazifa esa faqat ta'lim va fan sohasini rivojlantirish orqali etuk malakali kadrlar tayyorlash yo'li bilan amalga oshiriladi. SHuning uchun to'rtinchi harakat o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik

qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish [1].

Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili, deb e'lon qilingan 2017 yilda "Inson manfaatlarini hamma narsadan ulug'" degan g'oya asosida katta ishlar amalga oshirildi. Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida qayd etilgan bo'lsa, bugungi kunga qadar Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan quyidagi qonun hujjatlari qabul qilindi va amaliyotga joriy etilmoqda:

Harakatlar samaradorligini ta'minlovchi yangi qonun hujjatlari:

1. «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (29.12.2016 yildagi PQ-2707-son, kuchga kirish sanasi 09.01.2017);

2. «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademiklari faoliyatini yanada takomillashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (29.12.2016 yildagi PF-4907-son, kuchga kirish sanasi 09.01.2017);

3. «Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining attestatsiya natijalarini baholash mezonlarini tasdiqlash haqida» O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining qarori (21.12.2016 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2849, kuchga kirish sanasi 26.12.2016).

4. 2017 yil 20-aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 29/09 sonli Qarori qabul qilindi.

5. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 30-sentyabrdagi 51/98 sonli Farmoni.

Bu farmon asosida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik zimmasiga ma'muriy islohotlar doirasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, bir qator muhim vazifalar yuklandi.

Bu borada qabul qilingan dasturga muvofiq yaqin 3-4 yil mobaynida yurtimizdagi barcha hududlarda – bu katta shaharlar bo'ladimi yoki olis qishloq va ovullar bo'ladimi, minglab yangi bog'chalarni quriladi. Ularni zamonaviy talablar asosida jihozlab, malakali tarbiyachi va mutaxassislar, yangi metodika bilan ta'minlaniladi.

Bu esa qishloqda yashayotgan onalar uchun keng sharoitlar tug'diradi. Bola bog'chada sog'lom turmush asosida, maktabga tayyor bo'lib voyaga etadi.

Ayollar esa bolasidan ko'ngli to'q bo'lib, ijtimoiy mehnat bilan, uy-ro'zg'or ishlari bilan bimalol shug'ullanadi. Qolaversa, ularda dam olish, o'z sog'lig'i haqida o'ylash uchun ozgina bo'lsa ham sharoit paydo bo'ladi.

Ushbu harakatlar zahirida davlatimiz Prezidenti tomonidan mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida belgilangan quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish va yuksaltirish maqsadi ko'zlangan edi:

Birinchi vazifa – maktabgacha ta'lim sohasida. Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etardi, bir yil ichida bu 33 foizga ko'tarildi [2]. Tasdiqlangan dasturga ko'ra, bu yo'nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Joriy yilda 107 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilingan va qurilgan bo'lsa, 195 ta bog'cha kapital ta'mirlandi.

Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Birgina Qoraqalpog'iston misolida aytadigan bo'lsak, joriy yilning o'zida uchta xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi ish boshladi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev 2017 yil dekabrda Qoraqalpog'istonga tashrifi chog'ida "2017 yil - Qoraqalpog'istonda maktabgacha ta'lim muassasalari yili" bo'ladi deb e'lon qildilar. Rejaga muvofiq birgina Nukus shaharining o'zida 2018 yilda zamonaviy, barcha talablarga javob beradigan, shinam va qulay 20 ta maktabgacha ta'lim muassasasi qurib ishga tushiriladi.

2018-2021 yillarda esa, Qoraqalpog'iston hududida 170 ta ana shunday maktabgacha ta'lim muassasalari qurib ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu bizning kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizning ishonchli qo'llarda ekanligining yana bir amaldagi isboti hisoblanadi.

Ikkinchi vazifa – umumta'lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq. Zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas edi. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli va to'liq holda echilgani yo'q. Bu sohada amalga oshirilgan eng muhim ishlarning biri bu- yana 11 yillik ta'limning joriy etilishi bo'ldi. Bu muammo ko'plab otanolar va pedagoglarning ko'nglidagi ish bo'ldi desak xatolashmaymiz. Shuningdek, yoshlarga tarbiya berish, turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha bir qancha vazifalar amalga oshirildi.

Uchinchi vazifa – ta’lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir hududning zarur mutaxassislarga bo’lgan talabini to’g’ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilish edi. Bu masalada ha’m har bir hududning o’z muammosidan kelib chiqib amaliy ishlar bajarildi. Jumladan, keraksiz, ortiqcha kasb-hunar kollejlari qisqartilib, uning orniga maktablarning moddiy-texnik bazalari kengaytirildi. Joriy yilda yangi ta’lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta’irlashga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, 12 ta umumta’lim maktabi yangitdan qurildi, 152 tasi kapital ta’irlandi, 320 tasi esa rekonstruksiya qilindi [2]. Bu ishlar hali davom etmoqda.

Joylarda kadrlarga bo’lgan ehtiyojni qondirish maqsadida Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo’limlarda o’rta maxsus ma’lumotga ega bo’lgan 5 ming-

dan ortiq pedagoglar uchun oliy ta’lim olish imkoniyati paydo bo’ldi. Ta’lim tizimidagi innovatsion va kreativ yondoshuvlar sababli Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug’bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o’qitiladigan maxsus maktablar tashkil etildi [2]. Qoraqalpog’istonda esa Ibroyim Yusupov nomidagi iqtidorli bolalar maktabi tashkil etildi.

Hammamizga ma’lumki, 2017 yil 22-dekabr kuni muhtaram Prezidentimiz Oliy Majlis sessiyasida O’zbekiston Parlamentiga murojaat bilan chiqdi. 2018 yilni esa ”Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalari va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili” deb e’lon qildi. Bu esa o’z navbatida biz ta’lim sohasi xizmatkorlariga ham juda kata ma’suliyatli vazifalarni yuklaydi. Sababi, ta’limda innovatsion g’oyalarni qo’llanmasdan boshqa sohalarida uni amalga oshirish mumkin emas. Zero, “Buyuk kelajagimiz bugundan boshlanadi!” [2].

Adabiyotlar

1. 2017–2021 yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi.
2. “Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir”. Prezident SHavkat Mirziyoevning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagı ma’ruzası.

РЕЗЮМЕ

Maqolada harakatlar strategiyasi asosida ta’lim va fan sohasidagi qonunchilik hamda ilk islohotlar haqida so’z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идёт о законодательстве и о первых реформированиях в области науки и образования на основе стратегии действий.

SUMMARY

The article deals with legislation and first concepts in the field of educations and science based on the strategy of actions.

Tariyx

ҚУБЛА АРАЛ БОЙЫ ЭТНОМӘДЕНИЯТЫНЫҢ ДӘСТҮРИЙЛИГИ МӘСЕЛЕСИ

С.Досмағанбетов - ассистент оқытыушы

О.Юсупов - аға оқытыушы

А.Қайыпназаров - ассистент оқытыушы

Әжанияз атындағы Нәкіс мәмлекетлик педагогикалык институты

Таянч сўзлар: этномәданият, этнодәстәнар, этноурф-одатлар, «Қорқыт ата», «Қоблан», «Алпомиш», «Ер Зийўар», Дашти-Кипчоқ, күчмоқ, моддий ва маънавий маданият, Миянкул атрофида.

Ключевые слова: этно-культура, этноэпосы, этно-традиция, «Коркыт ата», «Коблан», «Алпамыс», «Ер Зийўар», Дешти-Кипчак, миграция, материальная и духовная культура вокруг «Миян куля».

Key words: ethnoculture, ethnopoem, ethnotraditions, «Korkut ata», «Koblan», «Alpamis», «Er Ziywar», «Deshti-Kipshak», migration, material and spiritual culture, around «Miyankul».

Евразияның «Уллы дала»сында жасаған көшпели шарўалардың өзине тән цивилизациясы хәм мәдениятының пайда болыуы, қәлиплесиўи хәм «изсиз жок болыуында» әйемги дүнья хәм орта әсирлердеги тарийхий экологиялық жағдайлар, сахрайы шарўалардың кубла-батысқа қарай мәжбүрий көшиўи (миграциялары), шарўа хожалықлардың басынан кеширген аўыр «жүт» ақыбетлери, көшпелилер турмысындағы тынымсыз жаўгершилиқ урыслардың зиянлы излери хәм хәр қыйлы «симбиозлық» қатнасықлар тийкарғы факторлар екенлигин атап өтсек болады [2:47].

Арал хәм Каспий теңизлери аралығы, Дешти-Қыпшақ даласындағы түркий хәм түркий емес шарўалардың өз ара хәр қыйлы этномәдений қатнасықлары, сахра халқының руўхий мәденияты, соның ишинде Арал бойы халықларының атадан балаға өтип болып киятырған хәр қыйлы мәресимлери, салт-дәстүрлери, мәселен: жақсылық белгиси болған нышанлар, той-мерекелерди өткерий, оған байланыслы хәр қыйлы ойын-заўық, миллий ойын түрлериниң көп әсирлерден бери сақланғаны мәлим.

Аралбойы этномәдениятында руўхий, затлық емес “номадий” мәдениятымыздың ең жақсы үлгилери, жақсылық нышанлары болған тойларды өткерий, ярым отырықшы қарақалпақлар, көшпели қазақ шарўаларында қалай өткериледи? Өзгешелиги хәм уқсаслығы неде? Бул тарийхий мәселе қәниге тарийхшы хәм этнологлардың илимий изертлеўлеринде өз сәўлесин тапқан.

Евразияның кең сахрасындағы түркий хәм түркий емес халықлардың материаллық емес “номадий” руўхий мийраслары тарийхий, қахарманлық дәстанларда, шежирелерде, хәўжар хәм қыз-жигитлер айтысларында қарақалпақ хәм қазақ еллерин басқарған хан, султан, хожа, бийлер, беглер беги, аталық, хәким, ақсақаллар хәм ел ағаларының жақсылық нышаны болған қырқ күнлик (сакраль мәнисте) тойларды бергени сөз етиледі. Евразиядағы түркий халықлардың әжайып мийрасы болған «Қорқыт ата» дәстанында, Оғуз бийлерине арнап «Ақ отаў», «Қызыл отаў», «Қара отаў» тиккенлиги, усы отаўларға хәр қыйлы қәўим, урыў бийлерин социал-